

## ISROIL VA G'AZO SEKTORI O'RTASIDAGI URUSHNI KELIB CHIQISHI

**MAJIDOVA.T**

*dotsent, polkovnik, Chirchiq OTQMBYU, Taktika kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Isroil va Hamas o'rtasida bo'lib o'tayotgan jangovar harakatlarni kelib chiqish sabablari, Isroil davlati va Hamasning paydo bilish tarixi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Musulmonlar, yahudiylar, nasroniy, harbiy yurishlar, Al-Aqso toshqini, aholi punkti, raketa zarbalari, asirlar.

**Аннотация.** В данной статье раскрыты особенности и тенденции развития тактических действий в ходе вооруженной борьбы между Украиной и Российской Федерацией.

**Ключевые слова:** Мусулманы, еврее, Христины, партизанские и диверсионные действия, удары авиации, маневренная оборона, узел обороны, маневренная бронированная танковая группа, окружение, гибридная форма, асимметрические действий.

Xamasning Isroil bilan urushi etti oydan ortiq vaqtdan beri davom etmoqda. Har ikki tomondan ham minglab tinch aholi halok bo'lmoqda va turli davlatlar tinchlikni tiklash bo'yicha har-xil rejalar ishlab chiqishda ishtirok etmoqda.

HAMAS va Isroil urushi 2023 yil 7 oktyabr kuni mahshar urushiniga 50 yil to'lganligi munosabati bilan HAMAS qo'shinlari hujum uyushtirdi. Hujumni boshlanishi Hamas tomonidan Isroilga 50 mingga yaqin raketa zarbalarini yulashdan boshlandi. Raketa zarbalaridan keyin 14 ta aholi punktga qo'riqlikdan bosqini amalga oshirilgan. Ular 14 ta aholi punktiga bostirib kirib, tinch aholi va yuqori mansabdaqi harbiylarni garovga olgan.



**Isroil va G‘azo o‘rtasidagi chegara devorining Isroil tomoniga buzib kirilishi.**

HAMAS Isroilga qarshi harbiy operatsiyani “Al-Aqso toshqini” deb atadi. Aynan Al-Aqso yahudiylar va falastinliklar o‘rtasida to‘qnashuvlarning asosiy nuqtasi hisoblanadi, chunki bu-joy musulmonlar uchun muqaddas. Tashkilot rahbari Muhammad Deifning so‘zlariga ko‘ra, Isroil bu yerni tahqirlagan. Bundan tashqari, 2023-yil davomida Isroil harbiylari yuzlab falastinliklarni o‘ldirgan, shuningdek, asirlarni almashtirishdan bosh tortgan.

Urushning kelib chiqishi asosiy sabablari bu tarixga bog‘lanadi, shunday ekan Isroil va Falastinning davlatining kelib chiqishi xamda Hamasning paydo bo‘lishini ko‘rib chiqamiz.

XVI asr o‘rtalarigacha bo‘lgan qadimiy tarix

G‘azza shahri Misr manbalarida miloddan avvalgi XV asrdan boshlab tilga olinadi (Tutmos III hukmronligining 22 yili yilnomalari). Miloddan avvalgi XII asrda shahar filistimliklar tomonidan bosib olindi va Ashkelon, Ashdod, Ekron va Gat shaharlari bilan birga Pentapolis tashkil etildi. Bu erda Dagonning butparastlik ibodatxonasi joylashgan edi.

Miloddan avvalgi 332-yilda G‘azo Makedoniyalik Aleksandr tomonidan bosib olindi va asta-sekin yeriklashib bordi. Diadoxlar o‘rnini rimliklar, keyin esa Vizantiya imperatorlari egallaydi.

328-yilda Buyuk Antoniyning shogirdi Ilarion G‘azoda mahalliy aholi orasida nasroniylikni muvaffaqiyatli targ‘ib qilgan monastirga asos soldi, shu tufayli 334-yilda Mayum knyazligi deb nomlangan butun G‘azo sektori aholisi nasroniy bo‘lgan mamlakat sifatida hurmatga sazovor bo‘ldi[9]. Bu esa G‘azoda yepiskop lavozimining

tashkil etilishiga yo'l ochdi; ulardan eng mashhuri G'azolik Porfiryidir. Uning davrida G'azoda Marna xudosining butparastlik harami ham bor edi[10].

1150-yilda G'azo qirol Bolduin III buyrug'i bilan harbiy yurishlar amalga oshirgan tampliyerlar mulkiga aylandi. Va o'sha vaqtda G'azoda Gadr qal'asi quriladi[11]. G'azoni keyinchalik ayyubiylar, misrlik mamluklar va usmoniylar ketma-ket boshqargan.

G'azo Usmonlilar imperiyasi tarkibida (1516–1917)

1517-yilda G'azo sulton Salim I boshchiligida usmonli-turklari tomonidan bosib olindi. 400-yil davomida u Yevropaning janubi-sharqiy qismi, Kichik Osiyo va Yaqin Sharq, Misr va Shimoliy Afrikaning katta qismini qamrab olgan ulkan Usmonli imperiyasining bir qismi bo'lib qoldi.

1832-yilda G'azo hududi Misr noibi Muhammad Alining o'g'li va harbiy qo'mondoni Ibrohim posho tomonidan bosib olindi. G'azo shimoliy chegarasi Sidongacha yetib borgan birlashgan Falastin viloyati tarkibiga kirdi. Mamlakatda 8 yil (1832–1840) hukmronlik qilgan misrliklar ba'zi yevropacha islohotlar o'tkazdilar, bu esa arablarning qarshilik ko'rsatishiga va mamlakatning aksariyat shaharlarida keyinchalik kuch bilan bostirilgan qo'zg'olonlarga sabab bo'ldi. Misrliklar hukmronligi davrida Injil geografiyasi va arxeologiyasi sohasida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borildi.

G'azo 1841-yilda Turkiyaning to'g'ridan-to'g'ri boshqaruviga qaytdi va 1917-yilda Birinchi Jahon urushida mag'lubiyatga uchragunga qadar turk nazorati ostida qoldi.

G'azo Britaniya imperiyasi tarkibida (1917–1947)

1917-yil 7-noyabrda G'azo uchun jang bo'lib o'tdi, bu jangda ingliz armiyasi (general Edmund Allenbi) turklarni mag'lub etib, ularni Falastin hududidan quvib chiqardi[12]. G'azo vassal Falastin hududiga kiritildi. Britaniya **vassalligiga** qadar Falastinning yahudiy va musulmon aholisi o'rtasida ochiq qurolli to'qnashuvlar kuzatilmagan. 1882-yilda Rosh-Pinada bir arabning yahudiy tomonidan o'ldirilishidan boshlab[13], arablar va yahudiylar o'rtasidagi to'qnashuvlar tobora ko'proq odamlar qurbon bo'ladigan yakunlarga ega bo'ldi[14].

1929-yilda arablar tomonidan sodir etilgan bosqinlar natijasida G'azoda yashovchi yahudiylar shaharni tark etishga majbur bo'ldi. Falastin bo'ylab bosqinlar paytida 135 yahudiy o'ldirilgan. Qadim zamonlardan beri yahudiylar jamoasi bu yerlarda yashab kelganiga qaramasdan, arablarni tinchlantirish uchun inglizlar ularning bosimiga yo'l bergan holda, yahudiylarga shaharga joylashishni taqiqladi[15][16].

Falastin yahudiylari nemislarga va ularning uchinchi frontdagi (Afrika, Yaqin Sharq va boshqalar) ittifoqchilariga qarshi harbiy harakatlarda inglizlarni qo'llab-quvvatladilar. Arab-Falastin qurolli tuzilmalari esa inglizlarning ochiq yon berishiga qaramay, natsistlar bloki mamlakatlari tomonida jang qildilar.

— Isroil davlatining tashkil topishi bilan yakunlangan arab-isroil urushi 1948 yilda boshlangan. Isroil juda yuqori darajadagi ichki hamjihatlikdan foyda ko'rdi. Yahudiylar jamoasi birlashgan emas edi, lekin Falastin arablari va arab davlatlari bilan solishtirganda, yahudiylar siyosiy, ijtimoiy va tashkiliy darajada hayratlanarli darajada kuchli edi. Urush bo'lishini anglaganlarida, ular allaqachon bunga tayyor edilar. Yahudiylar jamiyati badavlat jamoa emas edi: bu muhojirlar jamiyati edi. Ammo ular suveren davlatning to'laqonli armiyasiga ega bo'lmasalarda, qurol-yarog' to'plashdi, o'qitishdi va yollashdi. 1948-yil 15-mayda urush boshlanganida, yahudiylar jamoasi hujumga tayyor edi.

1948–1959-yillarda Falastin hukumati

1948-yilgi Falastin urushi va aniqrog'i 1948-yilgi Arab-Isroil urushi paytida o'n minglab falastinlik qochqinlar G'azo sektoriga yo'l oldi]. Urushning oxiriga kelib, Majburiy Falastin arab aholisining 25% G'azoda edi, garchi u yerning atigi 1% ni tashkil qilgan bo'lsa ham. O'sha yili UNRWA (Falastinlik qochqinlarga yordam berish va ishlarni tashkil etish bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharq agentligi ) turli qochqinlar dasturlarini boshqarish uchun tashkil etildi.

1948-yil 22-sentyabrda Arab-Isroil urushi tugashi arafasida Arab Ligasi tomonidan Misr tomonidan bosib olingan G'azo shahrida Butun Falastin hukumati e'lon qilindi. Bu qisman Arab Ligasining Transjordaniyaning Falastindagi ta'sirini cheklashga urinishi sifatida ishlab chiqilgan. Butun Falastin hukumatini Arab Ligasining o'sha paytdagi yetti a'zosidan oltitasi: Misr, Suriya, Livan, Iroq, Saudiya Arabistoni va Yaman tezda tan oldi, lekin Transjordaniya tomonidan emas. Buni Arab Ligasidan tashqari hech bir davlat tan olmagan.

Hududiy bo'linishi

Shimoliy G'azo viloyati (markazi – Jabaliya) – 270 245 kishi

G'azo viloyati – 496 410 kishi

Deyr al-Balah viloyati – 205 534 kishi

Xon-Yunis viloyati – 270 979 kishi

Rafah viloyati – 173 371 kishi[23].

Shaharlari

Abasan

Bayt-Xanun

G'azza

Dayr al-Balah

Rafah

Xon-Yunis

Jebaliya

Aholisi

G'azo sektorida 2 million 375 mingga yaqin falastinlik istiqomat qiladi.

Ularning aksariyat qismi 1948-yil yuz bergan Isroil-Falastin urushi vaqtida Isroildan qochgan yoki haydalganlardir. 1967-yilga kelib aholi soni 1948-yilga nisbatan 5 baravar ko'paygan. 1970-yildan beri G'azo sektorida 25 ta Isroil binosi qurilgan, biroq ular 2005-yilning avgustida buzib tashlangan. Mintaqada yashovchi aholining 99% dan ortig'i falastinlik musulmonlar va 0,7% falastinlik nasroniylardir.

Yana bir jiddiy zo'ravonlik 1969-70 yillarda sodir bo'ldi. Bu Suvaysh kanali va uning atrofida, shuningdek, Isroil kuchlari, xususan, havo kuchlari kirib kelgan Misrning ba'zi qismlarida bo'lib o'tgan Isroil va Misr o'rtasidagi urush deb ataladigan urush edi.

Keyingi yirik qarama-qarshilik 1973 yilgi urush edi. Arablar buni Ramazon urushi, Isroil esa Yom Kipur urushi deb ataydi. Urushda Isroil taxminan 2600-2700 kishini yo'qotdi, Misr tomonida 10 000 dan ortiq odam va Suriya va Iordaniyada yana bir necha ming kishi halok bo'ldi.

1982 yilgi Isroil-Livan urushi bo'lib o'tdi, bu urushda Isroil 700 ga yaqin askarini yo'qotdi. Isroilliklar 2000 yilgacha Livanning janubida qolishdi.

1993 va 1996 yillarda Isroil va Hizbulloh o'rtasida ikkita yirik to'qnashuv bo'lganini, keyin esa 2006 yilda yana bir to'qnashuv bo'lganini eslash kerak. Va albatta, XAMAS bilan bir qator to'qnashuvlar bo'ldi: 2008, 2009, 2012, 2014, 2018, 2021 va hozir 2024.

Xulosa qilib shuna aytish mumkinki Isroil, Falastin va Gazo sektori o'rtasidagi qurolli mojoro o'zoq o'tmishga taqaladi.

#### **Foydalingan manbalar**

1. Farrell, Stephen. „Israel-Gaza war: a timeline of the conflict's history“ (en). Reuters (2-noyabr 2023-yil). Murojat sanasi: 30-yanvabr 2024-yil.
2. Benni Morris, Righteous Victims: A History of the Zionist-Arab Conflict, 1881–1999, New York, 2001. ISBN 978-0-679-74475-7. 42, 54 bet.
3. Современные методы войны. – Кириш режими: <https://topwar.ru>. Мурожаат санаси – 25.01.2024.
4. Военная мысль и военное дело за рубежом. - Режим доступа: <http://invoen.ru>. - Дата обращения: 10.02.2024.